



TIIAME

Mavzu: BXSR va XXSR da qizil armiyaga qarshi kurash.

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi
Islamova S.



O'tilgan mavzuni takrorlash.



TIIAME

- Xivada xon huzurida tuzilgan Majlis va Nozirlar Sho'rosi xonning mutlaq hokimiyatini qay darajada cheklay oldi?
- Taxta qishlog'ida imzolangan shartnoma Xiva xonligi siyosiy holatiga qay darajada ta'sir ko'rsatdi?
- XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirilishiga nima sabab bo'ldi?



TIAME

БНСР



MyS



BXSR hududida qizil armiyaga qarshi kurash va xalq qo'zg'olonlarining boshlanishi.

- Qizil armiyaning Buxoro va Xorazm mamlakatlari hududlari- ga tajovuzkorona bostirib kirishi davomida qilgan talonchiliklari, zo'rliklari, qon to'kishlari ommaviy noroziliklarni keltirib chiqargan asosiy sabablardan bo'ldi. Buxoro va Xorazm aholisi o'z mamlakatlariga bostirib kirgan bosqin- chi qizil armiya askarlariga qarshi milliy ozodlik kurashiga qo'zg'aldi. Bu hududlarda vatanparvarlar harakati kengayib, keng quloch otdi





Buxoro qo‘rboshilarining milliy ozodlik kurashi.



TILAME

- Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor boshchiligidagi poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to‘plandi va qizil armi- yaga qarshi jangovar harakatlar olib borildi. Shuningdek, Mulla Abdulqahhor rahbarligida Buxoro, Karmana va Nurota viloyatlarida o‘nlab qo‘rboshi guruhlari faoliyat ko‘rsatdi. Uning qo‘l ostida Buxoroning g‘arbiy qismida 20 nafar qo‘rboshi birlashgan. Ular orasida **Hamro Polvon**, **Hayit Amin**, **O‘rmon Polvon**, **Oston Qorovulbegi** kabi shofirkonlik
- qo‘rboshilar ham bo‘lgan. Ular asosan, G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari hamda Nurota va Karmanada o‘z faoliyatlarini kuchaytirganlar.

Xorazmda Junaidxon boshchiligidagi harakat va uning o'ziga xos xususiyatlari

- Junaidxon rahbarligidagi qurolli guruhlar uzoq yillar davomida qizil armiyaga qarshi kurashdi. Uning qo'shinlari safida turkman va o'zbeklardan tashqari qozoq va qoraqalpoqlar ham ko'pchilik edi. Ko'hna Urganch, Ilyali, Toshhovuz, Mang'it, Qo'shko'pir, Chimboy, Qo'ng'iroq va To'rtko'lida harakat qilgan o'nlab sardorlarning guruhlari qizil askarlarga jiddiy zarba bergan





Istiqlolchilik harakatining mag'lubiyatga uchrash sabablari va kurash saboqlari



TIIAME

- 1924-yil kuzida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida qurolli kurashning **birinchi davri** yakunlandi. Uning **ikkinchi davri** (1925 – 1935-yillar) esa yana 10 yil davom etib, o'zining xarak-teri va kuchlar nisbati jihatidan avvalgi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Bu davrda asosan Sharqiy Buxoro, Xorazm vohasi va Farg'ona vodiysining ayrim hududlarida janglar davom etdi. **1935-yilga** kelib Turkistondagi istiqlolchilik harakati mag'lubiyatga uchradi. Tirik qolgan kurashchilarining aksariyati xorijiy davlatlarga muhojir bo'lib jo'nab ketishga majbur bo'ldi



TIAME



- O'zingizni sinang!
- Anvar Posho – bu ...
- Mulla Abdulqahhor – bu ...
- Ibrohimbek – bu ...
- Amir Olimxon – bu ...



Savol va topshiriqlar:



TILAME

- Buxoro va Xorazmda qizil armiyaga qarshi istiqlolchilik harakatining boshla-nishiga nimalar sabab bo'ldi?
- Istiqlolchilik harakati vakillarining g'oyalari o'rtasida qanday farqlar yoki mushtarakliklar bo'lgan?
- Istiqlolchilik harakatining mag'lubiyatga uchrashi bilan bog'liq omillarni sanab bering.